

## **ZAMONAVIY FANLARNI O'RGANISHDA TIL VA PSIXOLOGIYANING ASOSIY BOG'LANISHLARI**

**Xurramova Parvina Rizamat qizi**

Samarqand Davlat Chet tillar instituti talabasi

Gmail: [parvinaxurramova4@gmail.com](mailto:parvinaxurramova4@gmail.com)

Ilmiy rahbar: **Sattarova Dilrabo Ikrambayevna**

Gmail: [sattarovadilrabo25@gmail.com](mailto:sattarovadilrabo25@gmail.com)

Samarqand Davlat Chet tillar instituti asistant o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til va psixologiya o'rtasidagi aloqalar va o'zaro bog'liqlik taraflarining ahamiyati muhokama qilinadi. Tilning inson psixikasini, fikrlash jarayonlarini, emotsiyalarini va ijtimoiy o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi muhim omillarini, fikr va tasavvurlarni ifodalash, psixolingvistika nuqtai nazaridan yondashuvi, tilni o'rganish jarayonida insonning rivojlanishidagi muhim roli ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Til va psixologiyaning o'zaro bog'liqligi, til va ong: Fikr va tasavvurlarini ifodalash, emotsiyalar, til va ijtimoiy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi

### **KIRISH**

Til va psixologiya o'rtasidagi aloqalar qadim zamonlardan beri ilmiy tadqiqotning asosiy mavzularidan biri bo'lib kelmoqda. Til inson psixikasini, fikrlash jarayonlarini, emotsiyalarni va ijtimoiy o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Shu bilan birga, psixologiya tilning qanday shakllanishi, o'zgarishi va rivojlanishidagi roli haqida ko'plab ilmiy yondashuvlar taklif etgan.

Til va psixologiyaning o'zaro bog'liqligi: Til va psixologiya o'rtasidagi aloqalarni tushunish uchun birinchi navbatda, tilning inson psixikasidagi o'rni haqida so'z yuritish lozim. Til nafaqat muloqot vositasi, balki insonning tafakkur, xotira, emotsiyalar va tasavvurlarini shakllantiruvchi asosiy omildir. Psixologiya esa inson psixikasini, ong va noongni, hissiyot va fikrlarni o'rganadigan fan sifatida tilning qanday ishlashini va undan qanday foydalanish mumkinligini aniqlashga harakat qiladi.

Misol uchun, so'zlarning psixologik ta'siri, ularning odamlar orasidagi munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatishi va muloqotda qanday hissiyotlarni uyg'otishi

psixologiya sohasidagi taqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shu bilan birga, tilni o'rganish jarayonida psixologik jarayonlar, masalan, e'tibor, kognitiv jarayonlar, xotira va ta'sirlanishning qanday ro'l o'ynishini tushunish zarur.

**Til va ong: Fikr va tasavvurlarni ifodalash**

Psixologiya va lingvistikaning kesishgan nuqtalaridan biri - tilning ongni shakllantirishdagi roli. Psixologik yondashuvlarga ko'ra, til nafaqat insonning tasavvurlarini ifodalashda muhim, balki ular orqali biz o'z dunyoqarashimizni shakllantiramiz. Tilni bilish va ishlatishning kognitiv rivojlanishdagi o'rni juda katta: so'zlar orqali odamlar o'z fikrlarini tasavvur etish, tahlil qilish va boshqalar bilan baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

L.V.Vygotskiy, rus psixologi va pedagogi, tilning ong va tafakkurning rivojlanishdagi rolini ta'kidlagan. Uning fikricha, til bolalarda fikrlash jarayonlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Til orqali insonning tasavvurlari, xotirasi va ijtimoiy tajribasini shakllanadi.

**Til va emotsiyalar: Psixolingvustika nuqtai nazaridan**

Psixolingvustika sohasida til va emotsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish ham muhim. Emotsiyalar til orqali ifodalanadi, va shu bilan birga, til emotsional holatni yaratishi yoki o'zgartirishi mumkin. Masalan, ba'zi so'zlar odamda kuchli his-tuyg'ularni uyg'otishi mumkin ( masalan, "sevgi", " nafrat" kabi so'zlar).Bundan tashqari, til yordamida insonlar o'z hissiyotlarini boshqarish va boshqalarga izhor etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Psixologiyada bu jarayonlarning qanday amalga oshishini, qanday qilib til emotsiyalarni ifodalashda yordam berishini o'rganish juda muhimdir.

Til va ijtimoiy psixologiya. Tilning ijtimoiy aspekti ham psixologiya uchun katta ahamiyatga ega. Insonlar orasidagi o'zaro munosabatlarda til muhim vosita hisoblanadi. Ijtimoiy psixologiyada tilning guruhidagi, jamiyatdagi yoki madaniyatga roli o'rganiladi. Masalan, tilni ishlatish usullari, to'g'ri va noto'g'ri so'zlar, salbiy yoki ijobiy tasavvurlar yaratish - bularning barchasi ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi.

Maqsadli va noaniq so'zlar - bu tilni manipulyatsiya qilishda ishlatiladigan vositalardir. Ijtimoiy psixologiyada bunday yondashuvlar " persuaziv " tilda o'rganiladi, ya'ni qanday qilib til orqali odamlarni ma'lum fikr yoki qarorga undash mumkinligini aniqlashga harakat qilinadi.

Til va rivojlanish psixologiyasi. Tilni o'rganish jarayoni insonning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar tilni o'rganish jarayonida nafaqat tilni

o'zlashtirishadi, balki ular o'z tafakkurlarini va donyoqarashlarini ham rivojlantiradilar. Psixologiya, ayniqsa rivojlanish psixologiyasi, tilning bu jarayondagi o'rnini chuqur o'rganadi. Masalan, tilni o'rganish jarayonida bolalar kognitiv qobiliyatlarining rivojlanishi, hissiyotlar va ijtimoiy ko'nikmalarini qanday oshirishi haqida bilimlar beradi.

Nutq odamlarning asosiy aloqa vositasidir. Nutqsiz odam katta hajmdagi ma'lumotni qabul qila olmaydi va uzatolmaydi. Yozma nutqsiz, odam avvalgi avlodlarning odamlari qanday yashaganligi, ularning fikrlari va ishlarini bilish imkoniyatidan mahrum bo'lar edi. Uning fikrlari va his - tuyg'ularini boshqalarga yetkazish imkoniyati bo'lmaydi. Aloqa vositasi asifatida nutq tufayli insonning shaxsiy ongi, shaxsiy tajribasi bilan cheklanib qolmasdan, boshqa odamlarning tajribasi bilan boyitiladi va kuzatuv va nutqdan tashqari boshqa jarayonlarga qaraganda, to'g'ridan - to'g'ri bilish amalga oshiriladi, sezgi orqali amalga oshiriladi: idrok, e'tibor, tasavvur, xotira va fikrlashga imkon beradi. Nutq orqali bir kishining psixologiyasi va tajribasi boshqa odamlar uchun mavjud bo'lib, ularni boyitadi, rivojlanishiga hissa qo'shadi. Insoniyatda nutqning paydo bo'lishigacha, imo - ishoralardan foydalanib kelgan. Qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilaridan qanday funksiyani bajarayotgan bo'lsa, o'sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborotlar, ma'lumotlar ko'lami tor bo'lgani tufayli insonlar noverbal nutqdan ko'p davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar.

Hozirgi kunda yuqori malakali mutaxassis bo'lish nafaqat o'z tor sohangizda psofessional bo'lishni, balki chet tillarini ham puxta egallashni anglatadi. Katta yoshlilarda chet tilini muvaffaqiyatli o'rgatish uchun turli omillar mavjud bo'lib ularning eng muhimlaridan biri psixologiyaga tegishli. Turli xil psixologik jihatlarini chuqur tushunish o'qituvchilarga o'z ishidagi ko'plab muhim daqiqalarni hal qilishga yordam beradi: har bir o'quvchilar guruhida to'g'ri ishlash usulini topish; murakkab yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quvchilarning malaka va ko'nikmalariga ko'ra to'g'ri yondashuvni amalga oshirish; chet tilini o'zlashtirishda yuqori motivatsiyani ta'minlash; til o'rganish jarayonida paydo bo'ladigan "to'siqlar" deb ataladigan tabiiy muammolarni bartaraf etishdir.

Hozirgi kunda bizning zamonaviy jamiyatimiz chet tillarini o'zlashtirishga bo'lgan katta ehtiyojini anglab yetdi, chunki bu yuqori malakali mutaxassis uchun yangi keng istiqbollarni ochib beradi, uning raqobatbardoshligini oshiradi, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan turli xil xorijiy axborot manbalarini taqdim etgan holda

hayotning barcha jabhalarida dunyoqarashini kengaytiradi. Chet tilini oson va samarali o'rganish jarayonida katta yordam psixologik tamoyillarni bilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Til o'rganishning va uni o'rgatishning psixologik o'ziga xosligi chet tilidagi matnni idrok etish, chet tilidagi so'zlarni xotirada saqlash bilan xorijiy til o'quvchilari chet tilini o'zlashtirishi jarayonida ularning o'zga tildagi tafakkuri kengayib borishini ta'minlashning psixologik jihatlarini bilishni talab qiladi. O'qituvchi xorijiy tilda talablarning rivojlanishiga xos bo'lgan psixologik taraqqiyotiga faol ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishi ular bilan bo'ladigan munosabatlar uchun zarur psixologik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Xorijiy tilda talabalarning chet tilida mustaqil, erkin fikrlash doirasini kengaytirish, ular bilan suhbatlarni to'g'ri tashkil eta olishga ham bog'liq. Katta yoshli talabalarning o'z hayoti o'rtasidagi bog'liqlikning psixologik jihatlarini anglashi lozim. Bugungi kunda talaba chet tili darslarini o'zlashtira olmayotgan holatlarini ushbu masala bilan bog'liq bir qator muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Katta yoshli talaba ilk bor universitetga borib, sistematik ravishda aqliy mehnat bilan shug'ullanishni boshlaganida ko'proq ustozlarning yordamiga muhtoj bo'ladi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, katta yoshlilarda chet tillarini o'qitish nafaqat ta'lim fanining asosiy tamoyillariga, balki psixologiya fanining tamoyillariga ham qo'llashga asoslangan bo'lsa, samaraliroq bo'ladi,

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda til va psixologiya o'rtasidagi o'zaro aloqalar inson psixikasini chuqur tushunishga yordam beradi. Til insonning tafakkurini, emotdiyalarini va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida psixologiyaning turli yo'nalishlarida o'rganilmoqda. Bu mavzularni o'rganish nafaqat ilmiy qiziqish uyg'otadi, balki tilni rivojlantirish, emotsiyalarni boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash uchun amaliy yondashuvlarni taklif etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. M Ubaydullayeva, Ways To Activate Students When Teaching The Epic” Alpomish, Международный Журнал Языка, Образования, Перевода 4 (5), 2023
2. A. K. Shamshetova , R. N. Melibayeva, X. E. Usmanova, I. O. Xaydarov. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.: < Barkamol fayz media >, 2018.- 272 b.
3. НМ Сулейманова, ЖР Насруллаев, Some aspects of cognitive linguistics, including pragmatic factors, Современные исследования и перспективные направления инновационного развития ..., 2018
4. МА Ubaydullaeva, The History Of The Development Of The Terms Of Literary Studies Of The Turkic Peoples, Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2 ..., 2022
5. В. М. Umarov. Psixologiya. Darslik. - T., 2012.
6. НМ Сулейманова, ЖР Насруллаев, Номинативные особенности языковых единиц, Молодой ученый, 212-213, 2018
7. UM Azamatovna, The History Of The Development Of The Terms Of Literary Studies Of The Turkic Peoples
8. Q. Shodiyeva. Nutq o'stirsh uslubiyoti: Pedagogik yo'nalishdagi kasb - hunar kollejlarning maktabgacha ta'lim ixtisosligi talabalari uchun darslik Toshkent : " O'qituvchi " NMIU , 2008. - 304 b.
9. Н Сулейманова, Тил Белгиларининг Нутққа Кўчирилиши.
10. UM Azamatovna, The History Of The Development Of The Terms Of Literary Studies Of The Turkic Peoples.
11. Р. С. Немов. Психология. Учебник. - М.: Владос, 2003. 1-т. 240 с
12. D Axmedova, S Zarmaskhonov, Exploring Global Perspectives In Language Teaching And Learning, Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 205-207, 2024.
13. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O 'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G 'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
14. Honkeldieva, M., Bukhorov, K., Sayfiyeva, M., & Choriyeva, G. (2023, March). Study on the clathrates and polymorphes of plant polyphenols. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1142, No. 1, p. 012068). IOP Publishing.

15. Ruziev, S., Honkeldieva, M., Bukhorov, K., & Sayfiyeva, M. (2023). Spread, damage and control measures of powdery mildew disease of grain crops. In E3S Web of Conferences (Vol. 421, p. 02011). EDP Sciences.
16. Khojamkulova, Y., Honkeldieva, M., & Choriyeva, G. (2023). Effect of abiotic stresses on the physiological characteristics of rice (*Oryza sativa*). In E3S Web of Conferences (Vol. 421, p. 05002). EDP Sciences.
17. Валиева, Н. А. (2020). Философия религии, ее особенности и роль в обществе. Ученый XXI века, (1 (60)), 15-19.
18. UM Azamatovna, The History Of The Development Of Turkish Terminology
19. AD Ikramboyevna, SD Ikramboyevna, The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics, International Journals of Sciences and High Technologies, 2023.
20. Valieva, N. (2017). Ms Ethiopic 4 of the Collection of the India Office: A strayed Manuscript of Gadla Lālibalā. Aethiopica, 20, 190-201.